

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Valijonova Shaxzoda

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH 6-9

Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK
MOSLASHTIRISH ALGORITMI 10-15

Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI 16-19

IQTISODIYOT FANLARI

G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 20-24

FALSAFA FANLARI

Парниева Айгуль

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ 25-30

FILOLOGIYA FANLARI

Tursunova Farangiz

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI
JIHATLARI 31-33

Jo'rayeva Nozimaxon

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK 34-38

Inatova Jasmina

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI 39-42

Mavjudboyeva Mardona

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI 43-47

Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY
KONTEKSTDA 48-50

Xamidova Go'zal

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI 51-53

Adasheva Durdona

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI	72-77
YURIDIK FANLAR	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI	91-93
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING	144-149

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li

Turan Intertanional University IC&DT departamenti direktori

Email: ravshan.ismoilov77@gmail.com

Annotatsiya. Maqola zamonaviy axborot jamiyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini tahlil qiladi. Nazariy jihatdan Piaget, Vygotsky va Papertning kognitiv rivojlanish nazariyalari, shuningdek, raqamli pedagogika yondashuvlari asosida boshlang'ich ta'limda axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish usullari ko'rib chiqilgan. Raqamli resurslardan foydalanishning afzalliklari (interaktivlik, individual yondashuv) va muammolari (tanqidiy fikrlashning etishmasligi, axborot xavfsizligi) muhokama qilinadi. UNESCO, ISTE standartlari asosida taklif etilgan yechimlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: axborot madaniyati, raqamli resurslar, boshlang'ich ta'lim, tanqidiy fikrlash, konstruktivizm, Piaget, Vygotsky, media savodxonlik.

OPPORTUNITIES FOR USING DIGITAL RESOURCES IN FORMING THE INFORMATION CULTURE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Ismoilov Ravshan Yakubjon ugli

Turan International University Director of the IC&DT Department

Annotation. The article analyzes the importance of digital technologies in developing the information culture of primary school students in the modern information society. From a theoretical perspective, the methods of forming information literacy skills in primary education are considered, based on the cognitive development theories of Piaget, Vygotsky, and Papert, as well as digital pedagogy approaches. The advantages (interactivity, individual approach) and challenges (lack of critical thinking, information security) of using digital resources are discussed. Solutions proposed based on UNESCO and ISTE standards are also presented.

Keywords: information culture, digital resources, primary education, critical thinking, constructivism, Piaget, Vygotsky, media literacy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n25>

Zamonaviy jamiyatda axborot oqimi tobora ortib bormoqda. Bu holat ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Xususan, axborot madaniyatining shakllanishi - o'quvchining mustaqil axborot izlash, uni tahlil qilish, baholash va undan maqsadli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishni anglatadi. Axborot madaniyati, avvalo, raqamli savodxonlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'quvchilarda maktab davridanoq bosqichma-bosqich shakllanishi zarur. Axborot insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotining markaziy resursiga aylangan davrda, axborot madaniyati tushunchasi nafaqat texnik kompetensiyani, balki insonning axborot bilan muomala qilishdagi ijtimoiy, axloqiy va kognitiv malakalarini ham o'z ichiga oladi. Bu madaniyat shakllanishi jarayoni, ayniqsa, ta'lim tizimining eng fundamental bosqichi - boshlang'ich sinflarda alohida o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari - bu axborotni qabul qilish, tahlil qilish va undan foydalanish bo'yicha asosiy malakalarni shakllantirish davrida bo'lgan guruhdir. Ularning axborot madaniyati darajasini oshirish zamonaviy raqamli resurslar vositasida ancha samarali

amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi bu jarayonni nafaqat yengillashtirdi, balki interaktiv, individual yondashuv asosida amalga oshirish imkonini berdi.

Zamonaviy pedagogika paradigmasida axborot bilan ishlash - bu shunchaki ma'lumotni olish emas, balki mazmunli izlash, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, va ijtimoiy mas'uliyat bilan ulashish jarayonidir[1]. Bu yondashuv bolalar ongining shakllanish davrida, raqamli resurslar bilan birgalikda amalga oshirilsa, o'quvchida axborotga nisbatan madaniyatli, ongli, maqsadli munosabat shakllanadi. Mazkur maqola zamonaviy axborot nazariyasi, raqamli pedagogika yondashuvlari, va boshlang'ich ta'lim metodologiyasi kontekstida axborot madaniyatini shakllantirishning ilmiy asoslarini tahlil qiladi. Shu bilan birga, mavjud muammolar epistemologik asosda baholanadi va nazariy yechimlar taklif etiladi.

Axborot madaniyati - bu insonning axborotni izlash, tahlil qilish, tanqidiy baholash va undan ijtimoiy javobgarlik bilan foydalanishdagi kognitiv, etik va ijtimoiy kompetensiyalarining majmuidir. Bu tushuncha o'z ichiga faqat texnologik vositalardan foydalanish emas, balki ongli axborot muomalasi, axborot asrida yashashga tayyorlikni ham oladi. Epistemologik nuqtai nazardan, axborot madaniyati inson bilim olishi va uni axborotlar kontekstida ijtimoiy muomala vositasiga aylantirish jarayoniga asoslanadi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchining axborotni qabul qilishdan tortib, uni qayta ishlab chiqishgacha bo'lgan konstruktiv faoliyatini talab qiladi.

Raqamli savodxonlik va axborot madaniyati - bu XXI asrning asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida xalqaro miqyosda keng o'rganilmoqda. International Society for Technology in Education (ISTE) tomonidan ishlab chiqilgan standartlarda boshlang'ich maktab o'quvchilarida axborotni tanlash va baholash, texnologiyadan ijtimoiy va axloqiy jihatdan to'g'ri foydalanish va axborotni turli formatlarda yaratish va ulashish[6] kabi ko'nikmalarni shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi. Ko'pincha "digital literacy" (raqamli savodxonlik) va "media literacy" (media savodxonlik) tushunchalari bir-biriga yaqin deb qaraladi, biroq ular muayyan tafovutlarga ega. Raqamli savodxonlikning asosiy maqsadi texnologiyalar orqali axborotni izlash, ishlab chiqish, almashish hisoblansa, media savodxonlikda esa ommaviy axborot vositalari orqali axborotni tahlil qilish va baholash hisoblanadi. Ko'nikma turlarida esa raqamli savodxonlik kompyuter, internet, onlayn platformalardan foydalanish nazarda tutiladi. Media savodxonlikda kritik fikrlash, axborot etikasi, vizual va kontent tahlili hisoblanadi. Raqamli savodxonlikning amaliy kontekstida ta'lim, ish kundalik hayot nazarda tutilsa, media savodxonlikning amaliy kontekstida jamiyat, madaniyat, siyosiy axborot muhiti nazarda tutiladi. Renee Hobbs bu ikki tushunchani birlashtirib, "transliteracy" - ya'ni turli vositalar va kontekstlarda axborot bilan ishlay olish qobiliyatini ilgari surgan[5].

Manuel Castells o'zining "The Rise of the Network Society" asarida zamonaviy jamiyatni axborot oqimlariga asoslangan ijtimoiy tizim sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra - "Axborot - bu yangi iqtisodiyotning ishlab chiqarish resursi, bilim esa - kapital"[1]. Castells nazariyasi shuni anglatadiki, axborot bilan ishlash madaniyati insonni nafaqat ta'lim sohasida, balki ijtimoiy integratsiya va iqtisodiy muvaffaqiyatda ham hal qiluvchi o'ringa ega subyektga aylantiradi. Seymour Papertning "Constructionism" nazariyasi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayniqsa dolzarb. U shunday deydi - "Bolalar o'rganishni eng yaxshi amalga oshiradi, agar ular yangi bilimni yaratishda faol rol o'ynasa"[2]. Papertning qarashiga ko'ra, raqamli resurslar, ayniqsa

kodlash, simulyatsiya, o'yinli ta'lim platformalari - o'quvchining axborot bilan faol o'zaro aloqasini ta'minlab, konstruktiv tafakkurni rag'batlantiradi.

Bolalar tafakkuri va bilim olishini tushunish uchun avvalo klassik kognitiv rivojlanish nazariyalariga murojaat qilish zarur. Bu borada Jean Piaget va Lev Vygotskyning yondashuvlari boshlang'ich ta'limning asosiy psixologik poydevorini tashkil qiladi. Piagetga ko'ra, 7-11 yosh oralig'i (boshlang'ich sinf davri) konkret operatsiyalar bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bolalar, konkret obyektlar va holatlar bilan ishlay oladi. Klassifikatsiya, ketma-ketlik, sabab - oqibatni anglashga qodir bo'ladi, ammo abstrakt fikrlash hali shakllanmagan davr bo'ladi. Demak, bu yoshdagi o'quvchilarga taqdim etilayotgan axborot ko'rinarli, ko'p sezgi organlari orqali idrok etiladigan shaklda bo'lishi zarur (multimedia, video, interaktiv animatsiya). Vygotsky esa o'zining "yaqin rivojlanish zonasi" (Zone of Proximal Development) nazariyasida bolalarning imkoniyati - ular o'zlari bajara oladigan va kattalar yordamida bajara oladigan vazifalar orasida joylashganini ko'rsatadi. Vygotskyning fikricha "Rivojlanish ijtimoiy vositachilik orqali amalga oshiriladi va raqamli vositalar vositachilikning yangi shaklidir".

Raqamli resurslar, ayniqsa boshlang'ich sinfda qator jihatlar bo'yicha axborot madaniyati shakllanishiga xizmat qiladi. Konstruktivistik o'rganish nuqtai nazaridan turli xil interaktiv vositalar orqali o'quvchilar axborotni "iste'mol qilish" emas, balki uni qurish faoliyatiga jalb etiladi. Bu Papertning constructionism modelini aks ettiradi, bolalar bilimni yaratadi, sinovdan o'tkazadi, jamoada o'zaro baham ko'radi. Faol subyektlik jihatidan an'anaviy ta'limda o'quvchi passiv iste'molchi hisoblanadi. Raqamli muhitda esa o'quvchi axborot ishlab chiqaruvchi, kurator va baholovchiga aylanadi. Madaniy kapitalning kengayishi tomonidan olinganda, global resurslar (YouTube Kids, Scratch, Britannica Kids va b.) orqali bolalar axborotning madaniy kontekstini anglaydi. Bu esa ijtimoiy madaniyat va axborot etikasiga tayangan madaniyatni shakllantiradi. Raqamli resurslarni boshlang'ich sinfga tatbiq qilishda didaktik moslik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun raqamli kontent boshlang'ich sinf yoshiga ya'ni 7-11 yosh oralig'idagi o'quvchilar psixologiyasiga mos bo'lishi zarur. O'quvchilarga beriladigan vazifalar ularning faolligini oshiradigan, o'quvchilarni izlanishga undaydigan shaklda tanlanishi lozim. Raqamli kontentni boshlang'ich sinf o'quvchisiga taqdim etishda foydalanish oddiy, sodda va tushunarli, intuitiv interfeysga ega bo'lishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim - bu axborot madaniyati poydevori quriladigan bosqichdir. Piaget va Vygotsky nazariyalari asosida shuni anglash mumkinki, raqamli resurslar bolaning tafakkur rivojiga moslashgan bo'lishi zarur. Ya'ni 7-11 yoshdagi bola qabul qila oladigan darajadagi kontentlardan iborat bo'lishi lozim. O'qituvchi raqamli resurslar yordamida o'quvchining yuqori reflektiv fikrlashiga xizmat qiladigan muhit yaratishi kerak. Shundagina, o'quvchi "passiv qabul qiluvchi" dan "aktiv axborot muallifi" ga aylanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi - bu faqat bilim berish emas, balki bilimni mustaqil izlash, tahlil qilish va qo'llash kompetensiyasini shakllantirish tizimidir. Raqamli resurslar ushbu transformatsiyaning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Ular bir qator jihatlar bilan ajralib turadi. Bilimga erkin kirish imkoniyatini beradi, o'quvchi istalgan vaqtda axborotga ega bo'lishi mumkin. Turli xil platformalar yordamida o'quvchining darajasiga mos materiallarni vizual, eshitish, kinestetik usullarni birgalikda qo'llagan holda qabul qiladi va qayta ishlaydi. Bunday resurslarning kognitiv ta'siri Vygotsky va Papert nazariyalarining amaliy ifodasidir - o'quvchi faolligi oshadi, bilimni yaratish faoliyati kuchayadi.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli resurslar - bu shunchaki yordamchi vosita emas, o'quv muhitining yangi ontologiyasidir. Mahalliy va xalqaro platformalar o'quvchining axborot bilan ishlash malakalarini fazoviy va axloqiy kontekstda rivojlantiradi. Axborot madaniyati esa bugun raqamli fuqarolikning asosiy ko'rsatkichi sifatida qaralmoqda.

Boshlang'ich sinfda axborot madaniyatini shakllantirishda raqamli resurslardan foydalanish nafaqat imkoniyat, balki murakkabliklarni ham keltirib chiqaradi. Axborotga bo'lgan ongli yondashuvning shakllanmaganligi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pincha axborotni "haqiqat" deb qabul qiladi. Bunday yoshdagi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni baholash ko'nikmalari hali shakllanmagan bo'ladi. Bu, Piaget nazariyasiga ko'ra, mantiqiy operatsiyalarning cheklangani bilan bog'liq bo'ladi. O'qituvchilarning metodik va raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi. Vygotsky nazariyasida aytilganidek, bolalar rivojlanishi uchun "ko'makchi" zarur. O'qituvchining raqamli vositalardan to'g'ri foydalanish malakasi bo'lmasa, bu ko'makchiliksiz rivojlanish to'xtaydi. Axborot etikasi va axborot xavfsizligi masalalarining e'tibordan chetda qolishi oqibatida, axborot bilan ishlashda ijtimoiy mas'uliyat, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli izlar masalalari boshlang'ich sinfda yetarli o'rgatilmaydi. Bu esa media madaniyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Quyida taklif etilayotgan yechimlar zamonaviy ta'lim falsafasi, kognitiv rivojlanish nazariyalari va axborotshunoslik paradigmalari asosida ishlab chiqilgan:

1. Tanqidiy fikrlashni erta bosqichda o'rgatish - O'qituvchi turli axborot manbalarini taqqoslash, muhokama qilish jarayonida o'quvchiga yo'nalish beradi, darslarga axborot baholash elementlarini kiritilishi kerak.

2. O'qituvchilarning reflektiv kompetensiyasini rivojlantirish - Papert va Deweyning reflektiv ta'lim modeli asosida o'qituvchilarni raqamli didaktik tafakkurga o'rgatish zarur. Malaka oshirish kurslarida "Pedagogik mediafikrlash" darslari bunga katta yordam beradi.

3. Axborot etikasi va raqamli fuqarolik darslarini kiritish - Raqamli madaniyat bo'yicha maxsus modullar ishlab chiqish va boshlang'ich sinf darslariga integratsiya qilish kerak bo'ladi. UNESCO va ISTE modeliga tayangan holda: onlayn axloq, shaxsiy axborotni himoya qilish, mas'uliyatli almashinish mumkin.

Nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, axborot madaniyati, faqat texnik ko'nikmalar emas, balki madaniy, axloqiy, va ijtimoiy jihatlarni ham qamrab oladi. Uni shakllantirish uchun pedagogik texnologiyalar, psixologik moslik va ijtimoiy kontekstlarning o'zaro integratsiyasi zarur. Raqamli vositalar - bu sabab emas, vosita, asosiy poydevor - o'qituvchi va uning ilmiy-metodik kompetensiyasidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirish masalasi XXI asrda ta'limning asosiy maqsadlaridan biriga aylanmoqda. Bu madaniyat - faqat texnologik bilim emas, balki axborotga nisbatan ongli, tanqidiy va madaniyatli yondashuvni anglatadi. Maqola davomida olib borilgan nazariy tahlillar, pedagogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Axborot madaniyati - bu bilim emas, balki bilim bilan ishlash madaniyati, u tafakkur va axloqni qamrab oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari (Piaget, Vygotsky nazariyalariga ko'ra) ularning axborot bilan ishlashini faqat konkret, vizual va sotsial vositalar orqali rivojlantirish samaradorligi yuqori bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Raqamli resurslar, agar ular didaktik jihatdan to'g'ri tanlansa va o'qituvchi tomonidan ongli integratsiya qilinsa, o'quvchilarda konstruktiv axborot madaniyatini shakllantiradi. UNESCO, ISTE va OECD

tomonidan ilgari surilgan nazariy tavsiyalar va O'zbekistonning amaliy tajribasi bu borada global va lokal yondashuvlar birligi zarurligini ko'rsatmoqda. Muammolar (kompetensiya yetishmovchiligi, infratuzilma) esa faqat texnik yechimlar bilan emas, balki nazariy asoslangan metodik islohotlar orqali bartaraf etilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Castells M. *The Rise of the Network Society*. Wiley-Blackwell. 2010.
2. Papert S. *Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas*. Basic Books. 1980.
3. Piaget J. *Science of Education and the Psychology of the Child*. Orion Press. 1970.
4. Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press. 1978.
5. Hobbs R. *Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom*. Corwin. 2011.
6. ISTE Standards for Students. 2022.
7. UNESCO. *Guidelines for Digital Literacy*. Paris: UNESCO Publishing. 2021.
8. OECD. *21st Century Skills and Digital Literacy*. OECD Publishing. 2020.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.